

UDK: 37.091.3:004:7

TASVIRIY SAN'AT TA'LIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

Azamova Munira Ismoilovna

Guliston davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at" yo'nalishi 1-kurs magistranti

e-mail: azamovamunira@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasviriy san'at ta'limi jarayoniga raqamli texnologiyalarni integratsiya qilishning pedagogik-metodik asoslari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli vositalardan foydalanish o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, vizual idrokini kuchaytirish hamda ularning badiiy-estetik kompetensiyalarini shakllantirishda muhim omil sifatida qaraladi. Maqolada raqamli texnologiyalar asosida tasviriy san'atni o'qitish metodikasi, amaliy natijalar va ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at, raqamli texnologiyalar, ta'lim, integratsiya, ijodkorlik, kompetensiya, raqamli ta'lim.

KIRISH

Global raqamlashuv jarayoni zamonaviy ta'lim tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, tasviriy san'at ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llash an'anaviy o'qitish usullarini boyitish, ta'lim mazmunini zamon talabiga moslashtirish imkonini beradi [1]. Bugungi kunda grafik planshetlar, raqamli rasm chizish dasturlari, multimedia vositalari hamda onlayn platformalar tasviriy san'at ta'limining ajralmas qismiga aylanib bormoqda [3].

Raqamli texnologiyalar integratsiyasi o'quvchilarning badiiy faoliyatini faollashtirish, mustaqil ijod qilishga undash hamda ularda raqamli kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi [5]. Shu bois mazkur maqolada tasviriy san'at ta'limida raqamli texnologiyalarni qo'llashning ilmiy-metodik jihatlari tahlil qilinadi [11].

O'quv jarayonida raqamli texnologiyalarni tasviriy san'at ta'limiga tadbiq etish masalasi bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. S.I. Makrousov [3], V. P. Bepalko [1], K.A. Rojko [7], R.X. Karimov [36], D.Yu. Altimentova [5], O.X. Azamatov [8], R.Z. Xayrov [2; 6] kabi mutaxassilarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga kasb etadi. Shu bilan birga yuqoridagi olimlar ham ta'lim jarayonida vizual tafakkur, estetik idrok va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratganlar [9]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda esa ushbu g'oyalar raqamli muhit bilan uyg'unlashtirilmoqda [10].

Rassom-pedagog olimlar ta'kidlaganidek, tasviriy faoliyatda texnologiya vosita sifatida emas, balki ijodiy fikrni rivojlantiruvchi muhit sifatida qo'llanilishi lozim [11]. Raqamli texnologiyalar esa bu muhitni yanada kengaytirib, yangi ifoda vositalarini yaratadi [4; 8].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda raqamli pedagogika, media ta'lim va vizual madaniyat masalalariga qiziqish ortmoqda [1]. Tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirish hamda individual ta'lim traektoriyalarini shakllantirishda samarali ekani ta'kidlanadi [3]. Masalan, R.Z. Xayrovning "Tasviriy san'at fanini o'qitish metodikasi" darsligida "Tasviriy san'at darslarida kompyuterdan foydalanish metodikasi" paragrafi alohida ahamiyatga ega [2].

Muallif o'z darsligida tasviriy san'at ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va mexanizmlarini tahlil qilib, ta'lim sifati va metodologik yondashuvlarni takomillashtirish masalalarini yoritib bergan.

Tasviriy san'at ta'limi nazariyasida rassom-pedagog olimlar badiiy ta'limni shaxs rivojining muhim vositasi sifatida baholaydilar [9].

Tasviriy san'at ta'limi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda raqamli rasm chizish, animatsiya, 3D modellashtirish kabi yo'nalishlar o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirishi isbotlangan [3; 10].

Shu bilan birga, mualliflar raqamli va an'anaviy usullarning uyg'unligi muhim ekanini alohida qayd etadilar [11].

MATERIAL VA METODOLOGIYA

Tasviriy san'at ta'limida raqamli texnologiyalarni integratsiya qilish quyidagi metodik yondashuvlar asosida amalga oshirilishi mumkin [1; 3]: raqamli grafika dasturlari orqali rasm chizish va kompozitsiya yaratish [3]; multimedia taqdimotlar yordamida san'at asarlarini tahlil qilish [11]; virtual galereyalar va onlayn muzeylardan foydalanish [9]; raqamli portfolio shakllantirish (1-rasm).

Metodikada o'quvchilarning yosh xususiyatlari, badiiy tayyorgarlik darajasi va ijodiy qobiliyatlari inobatga olinadi. Dars jarayonida raqamli vositalar o'quvchi uchun erkin ijod qilish imkoniyatini yaratishi lozim [6].

AKTlardan darsda qanday foydalanish mumkin?

Kompyuterlarni tasviriy san'at darslariga tadbiiq etilishi, o'quvchilarga berilayotgan bilim va axborotlar hajmini oshiradi, an'anaviy darslarga qaraganda o'quvchilarda bilish faoliyatini tashkillashtirish faollashadi [1]. Bunda bizga Windows uchun Paint, Adobe Photoshop dasturlari qo'l keladi [3].



1-rasm. CorelDRAW grafik dasturida yaratilgan illyustratsiya.

Tasviriy san'at darslarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari quyidagi didaktik imkoniyatlarni namoyon etib beradi: o'quvchilar bilan individual va differensial ishlash imkonini beradi [6]; ta'lim oluvchilarning monitorlari va multimedia proektorlari ekranlariga matnli yoki grafik axborotlarni yetkazish; grafik redaktorlar yordamida rasmlar yaratish; yirik jahon va vatanimizning virtual muzeylariga tashrif buyurish; jahon rangtasvir durdonalarini raqamli to'plamlarini yaratish; bilimlarni nazorat qilish (testlash) [1]; multimediali namoyishlar (prezentatsiyalar) yaratish.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Olib borilgan amaliy tadqiqot va pedagogik tajriba-sinov ishlari natijalari raqamli texnologiyalarni tasviriy san'at ta'limiga integratsiya qilish o'quv jarayoni samaradorligini sezilarli darajada oshirishini tasdiqladi. Tadqiqot ishlari Sirdaryo viloyati Guliston shahridagi 11-umumiy o'rta ta'lim maktabida tashkil etildi hamda 2025-2026 o'quv yilining 1-yarim yilligi davomida amalga oshirildi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarida 5-6 va 7-sinflarda tahsil olayotgan jami 189 nafar o'quvchi ishtirok etdi. Tadqiqot jarayonida tasviriy san'at darslari raqamli texnologiyalar asosida tashkil etildi. Jumladan, darslarda kompyuter vositalari, multimediali prezentatsiyalar, grafik redaktorlar va vizual axborot resurslaridan foydalanildi.

Bu esa o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, ularning bilish faoliyatini faollashtirishga xizmat qildi.

Tadqiqot boshida, ya'ni 1-yarim yillikning boshlanish davrida o'quvchilarning tasviriy san'at fanidan bilim, ko'nikma va malakalari diagnostika qilindi. Ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar tizimli ravishda qo'llanilib borildi. Natijada 1-yarim yillik yakunida o'quvchilar bilim darajasida sezilarli ijobiy o'sish kuzatildi. Ayniqsa, o'quvchilarning kompozitsiya tuzish, ranglar uyg'unligini anglash, badiiy obraz yaratish hamda mustaqil ijodiy ishlarni bajarish ko'nikmalarida ijobiy o'zgarishlar aniqlandi.

Shuningdek, raqamli muhitda ishlash jarayoni o'quvchilarning vizual savodxonligini shakllantirishga, san'at asarlarini tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qildi. Darslarda kompyuterdan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, yangi badiiy yechimlarni izlashga bo'lgan intilishini kuchaytirdi hamda ijodiy faolligini oshirdi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar qo'llanilgan tasviriy san'at darslari o'quvchilarning bilim darajasini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish va ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, tasviriy san'at ta'limida raqamli texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy pedagogik talablarga javob beradigan, ta'lim mazmuni va sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi samarali yo'nalish hisoblanadi. Raqamli vositalardan maqsadli va tizimli foydalanish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, badiiy-estetik tafakkurini shakllantirish hamda vizual savodxonligini oshirishga xizmat

qiladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar tasviriy san'at ta'limida o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini kuchaytirish, mustaqil ijodiy faoliyatga jalb etish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot jarayonida aniqlangan natijalar shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalar qo'llanilgan darslar an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan yuqori samaradorlikka ega. O'quvchilar raqamli muhitda ishlash jarayonida yangi badiiy yechimlarni izlashga, tajriba qilishga va ijodiy fikr yuritishga ko'proq moyil bo'ladilar. Bu esa ularning shaxsiy ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Muhim jihatlardan biri shundaki, raqamli texnologiyalar tasviriy san'at ta'limida maqsad emas, balki badiiy ta'limni boyituvchi vosita sifatida qaralishi lozim. An'anaviy tasviriy faoliyat usullari bilan raqamli texnologiyalarni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarda ham klassik, ham zamonaviy badiiy ifoda vositalaridan foydalanish ko'nikmalari shakllanadi. Bu esa ularning umumiy madaniy va kasbiy tayyorgarligini oshiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda quyidagi amaliy tavsiyalarni berish mumkin:

- tasviriy san'at darslarida raqamli texnologiyalarni tizimli va bosqichma-bosqich joriy etish va o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasini oshirishga qaratilgan metodik seminar va treninglarni tashkil etish;

- an'anaviy va raqamli tasviriy faoliyat usullarini uyg'un holda qo'llash hamda o'quvchilar uchun raqamli portfolio yuritish amaliyotini joriy etish;

- dars jarayonida ijodiy mustaqillik va erkinlikni ta'minlash.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, tasviriy san'at ta'limida raqamli texnologiyalar integratsiyasi zamonaviy ta'lim tizimida barqaror rivojlanishga erishish, raqobatbardosh va ijodkor shaxsni tarbiyalashda muhim pedagogik ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Беспалько В.П. Образование и обучение с использованием компьютеров (педагогика третьего тысячелетия): учебно-методическое пособие. - Москва: МОДЭК, 2002. - 352 с.

2. Хайров Расим Золимхон Угли СОЗДАНИЕ СИТУАЦИИ УСПЕХА ДЛЯ КАЖДОГО УЧЕНИКА НА УРОКАХ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА // Современное образование (Узбекистан). 2021. №12 (109). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/sozдание-situatsii-uspeha-dlya-kazhdogo-uchenika-na-urokah-izobrazitelnogo-iskusstva>

3. Макроусов С.И. Методика обучения учителей изобразительного искусства основам компьютерного моделирования как средство повышения их профессиональной компетентности (в системе повышения квалификации) // Вестник ЧГПУ. – Чебоксары, 2010. – № 8. – С. 137-147.

4. Xudoyorov Shodiyor Ziyodullo o'g'li, /Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li. (2025). TASVIRIY SAN'AT VOSITALARIDA SIRDARYO VILOYATI OBIDALARINING BADIY

TALQINI VA ESTETIK IFODASI. IQRO INDEXING, 18(01), 1053-1057.
<https://worldlyjournals.com/index.php/IFX/article/view/16469>

5. Zolimkhan, K. (2024). Training Future Fine Arts Teachers In The Context Of Digitalization. American Journal of Social and Humanitarian Research, 5(12), 528–537. Retrieved from <https://www.globalresearchnetwork.us/index.php/ajshr/article/view/3149>

6. Khayrov R. Z., Khasanov N. T., Khayrova M. R. CREATING A SITUATION OF SUCCESS IN FINE ARTS LESSONS THROUGH AN INDIVIDUAL APPROACH // Академическая публицистика. – 2021. – №. 2. – С. 208-210.

7. Mohigul Gulomovna Akbarova, Rasim Zalimxan O'g'li Xayrov AN'ANAVIY XONANDALIK YO'NALISHI BO'LAJAK MUTAHASISLARINING PEDAGOGIC KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH VA BU JARAYONDA DUCH KELINADIGAN MUAMMO VA YECHIMLAR // Oriental Art and Culture. 2023. №6. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/an-anaviy-xonandalik-yo-nalishi-bo-lajak-mutahasislarining-pedagogic-kompetensiyasini-rivojlantirish-va-bu-jarayonda-duch>

8. Ahmadova S.A., Xayrov R.Z. TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA EKOLOGIK TARBIYANI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI. (2025). Global Science Review, 7(1), 199-206. <https://global-science-review.com/ojs/index.php/gsr/article/view/3086>

9. Bolbekovich N. B. THE TASK OF FINE ARTS IN AESTHETIC EDUCATION // SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM. – 2024. – Т. 3. – №. 30. – С. 196-198.

10. Khairov R. Z. INDEPENDENT EDUCATIONAL ACTIVITIES AIMED AT IMPROVING THE PROFESSIONAL AND METHODOLOGICAL TRAINING OF FUTURE TEACHERS OF FINE ARTS // BREAKTHROUGH SCIENTIFIC RESEARCH AS AN ENGINE OF SCIENCE. – 2024. – С. 40.

11. Хайров Р. З., Азамкулов Г. О., Умиров Б. Т. МУЛЬТИМЕДИЙНОЕ ОБУЧЕНИЕ В СОВЕРШЕНСТВОВАНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ // Символ науки. 2023. №5-1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/multimediynoe-obuchenie-v-sovershenstvovanii-professionalno-metodicheskoy-podgotovki-buduschih-uchiteley> (дата обращения: 09.01.2026).